
Qimmatli qog'ozlar bozorida IPO va SPO tushunchalari

2017 yil 17 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4933-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonni qabul qilinishidan maqsad - xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat ob'ektlarini realizatsiya qilish jarayonlarini tezlashtirish, xususiylashtirishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, xususiylashtirish jarayoniga aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning keng qatlamlarini jalb etish, shu jumladan xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalarini ommaviy tarzda sotishdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib Farmonda mamlakatimiz fond bozori tarixida ilk bor aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalarini fond birjasida axoliga va tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) oshkora taklif etishni joriy etish belgilab qo'yildi.

Shu o'rinda IPO va SPO atamalari to'g'risida biroz tushuncha berib o'tishni istardik.

IPO (ingliz tilidan olingan - Initial Public Offering) - aktsiyadorlik jamiyatining aktsiyalarini birlamchi oshkora taklif etish degan ma'noni bildiradi. Ya'ni u aktsiyalarni cheklanmagan shaxslar orasidagi dastlabki sotuvi, dastlabki taklif qilinishidir.

IPO ni o'tkazishdan asosiy maqsad korxonani rivojlantirish uchun keng doiradagi investorlardan kapital jalb qilishdir.

SPO (ingliz tilidan olingan -Secondary Public Offering) ga kelsak, bu mavjud aktsiyadorlarga tegishli aktsiyalarning ikkilamchi ommaviy tarzda joylashtirilishidir. Bunda korxonaning muayyan aktsiyadori yoki aktsiyadorlariga tegishli bo'lgan aktsiyalar ommaviy ravishda taklif etiladi.

IPO dan farqli o'laroq SPO korxonani ustav kapitaliga ta'sir qilmaydi. Bunda ilgari joylashtirilgan aktsiyalar keng investorlar doirasida oshkora taklif etiladi. Biroq buning korxonaga foydasi aktsiyalarning jozibadorligi, ommaviyligi va likvidligini oshirishni ta'minlaydi. Investorlar doirasini kengaytiradi va kelgusida IPO ni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 10.05.2017 yildagi 268-sonli "Fond birjasida aktsiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishi tashkil etish to'g'risida" gi qarori qabul qilinib unda viloyatimizdagi "Kvarts" AJ xamda "Qo'qon mexanika zavodi" AJ, shuningdek Qashqadaryo viloyatidagi "Shaxrisabz vino-aroq" AJ larning aktsiyalarini fond birjasida ommaviy sotishni tashkil etish belgilandi.

Qarorda “Kvarts” AJ aksiyalarini birlamchi (IPO), “Qo’qon mexanika zavodi” AJ va “Shaxrisabz vino-arog” AJ aksiyalarini ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish ko’zda tutilgan.

Qarorda ommaviy savdolarga axoli va xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning keng qatlamini jalb qilish maqsadida xar bir shaxsga sotuvga taklif qilinayotgan aksiyalar umumiy xajmining 0,05% dan ortiq bo’lmagan miqdorda aksiyalarni xarid qilishi mumkinligi belgilab qo’yildi.

Mazkur qarorning 1-ilovasiga asosan “Kvarts” AJ va “Qo’qon mexanika zavodi” AJ aksiyalarini ommaviy taklif etish tashkilotchisi etib TIF “Milliy bank” belgilangan.

Shuningdek qarorning 2-ilovasiga asosan “Fond birjasida aksiyalarni birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini o’tkazish to’g’risida” gi nizom tasdiqlandi.

Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida bugungi kunga kelib “Kvarts” AJ tomonidan nominal qiymati 1715 so’m bo’lgan 4574934 dona 7846011810 so’mlik oddiy aksiyalar chiqariluvi 02.10.2017 yilda davlat ro’yxatidan o’tkazildi xamda “Toshkent” RFB AJ ning birja savdolariga sotuvga qo’yildi.

Xar bir dona aksiyaning sotuv narxi 3000 so’mdan 9100 so’mgacha qilib belgilandi. Xozirda mazkur narxlar oralig’ida buyurtmalar qabul qilinmoqda.

Buyurtmalarni qabul qilishni yakunlash sanasi etib 2018 yilning 3 aprel kuni belgilangan.

“Qo’qon mexanika zavodi” AJ aksiyalarini ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish ko’zda tutilgan bo’lib buning uchun jamiyatning aksiyadori “Uzneftegazmash” AK tegishli bo’lgan nominal qiymati 900 so’m bo’lgan 186371 dona oddiy aksiyalar sotilishi rejalashtirilgan.

Xozirda aksiyalarni ommaviy savdosini tashkil etish bo’yicha so’nggi bosqich tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Aksiyalarni sotib olish istagini bildirgan shaxslar qimmatli qog’ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tegishli litsenziyaga ega respublikamizdagi istalgan investitsiya vositachilariga murojaat qilishlari mumkin.

Xozirda viloyatimizda qimmatli qog’ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida “Ishonch LTD” MChJ (*Manzil: Farg’ona shaxri, Qomus ko’chasi 40 uy, telefon: 244-30-37*) xamda “Farg’ona vaqt” MChJ (*Manzil: Farg’ona shaxri, Farobiy ko’chasi 7 uy, telefon:226-26-34*) lar faoliyat yuritmoqda.

Batafsil ma’lumotlarni “Toshkent” RFB AJ ning (www.uzse.uz), “Kvarts” AJ ning (www.kvarts.uz), xamda TIF “Milliybank” ning (www.nbu.uz) rasmiy veb saytlaridan olish mumkin.

O’ylaymizki, aksiyalarni ommaviy taklif etishda IPO va SPO shaklini mamlakatimizda qo’llanilishi aksiyadorlik jamiyatlariga kapital jalb qilish, aktsiya xarid qilgan shaxslarga esa aksiyador sifatida o’zini namoyon qilish, korxonani boshqarishda ishtirok etish va daromad olish imkonini beradi.

M.Kenjaev

**Qimmatli qog’ozlar bozorini muvofiq
rivojlantirish Markazi Farg’ona viloyati
boshqarmasi**

B.Farmonov

**Davlat raqobat qo’mitasi Farg’ona viloyati
boshqarmasi bo’lim boshlig’i**